

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOIYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

CRIMINAL PROCEDURAL ASPECTS OF PROSECUTOR PARTICIPATION IN HIGHER INSTANCE COURTS

Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich,

Independent Researcher, Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the legal foundations, substance, and practical significance of prosecutor participation during the review of criminal court decisions in higher instance courts. The author also proposes suggestions and recommendations aimed at increasing the effectiveness of the institution of prosecutorial participation.

Keywords: instance, prosecutor, first instance court, higher instance court, appeal, cassation, supervision, court decision, review, legality, justice.

YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI

Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich,

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

E-mail: jetwont86@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori instansiya sudlarida jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida prokuror ishtirokining huquqiy asoslari, mazmun-mohiyati hamda amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, prokuror ishtiroki institutining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: instansiya, prokuror, birinchi instansiya, yuqori instansiya, apellyatsiya, kassatsiya, taftish, sud qarori, tekshirish, qonuniylik, adolat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N61>

Kirish. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sud mustaqilligi, prokuratura faoliyatining oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning ishonchli kafolatlarini yaratishdan iboratdir. Jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rib chiqilishi mazkur himoya mexanizmlarining asosiy tarkibiy qismidir. Ushbu jarayonda prokuror ishtiroki jinoiy adolat tamoyillarini ta'minlash, sud faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish hamda davlat manfaatlari, inson va fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 10-moddasi hamda "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun normalari prokurorning sud jarayonlaridagi vakolatlari, sud qarorlari ustidan protest bildirish huquqi va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish majburiyatlarini belgilaydi. Shu mazmunda, yuqori instansiya sudlarida prokuror ishtiroki nafaqat sud xatolarini bartaraf etish, balki sud

qarorlarining qonuniyligi, adolatliligi va asosliligini kafolatlashning muhim vositasi sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimini isloh qilish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida sud mustaqilligi va prokuratura faoliyatining samaradorligini oshirish masalasi asosiy vazifalardan biri sifatida turibdi. Chunki sud qarorlarining qonuniyligi, adolatliligi va asosliligi – huquqiy davlat barpo etishning muhim poydevori hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot davomida milliy va xalqaro normativ hujjatlar, ilmiy manbalar, sharhlar, darsliklar hamda huquqni qo'llash amaliyoti o'rganildi. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va BMT deklaratsiyalari prokuror ishtirokini inson huquqlarini ta'minlash kontekstida talqin etish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi prokuratura faoliyatining konstitutsiyaviy asosini belgilaydi.

"Prokuratura to'g'risida"gi Qonun prokurorning sud bosqichlaridagi vakolat va protsessual maqomini aniqlab beradi.

Jinoyat-protsessual kodeks, shu jumladan, uning 27-, 409-, 410-moddalari prokuror ishtirokining protsessual chegaralarini belgilaydi.

Tegishli ilmiy-amaliy sharhga doir adabiyotlarida prokuror ishtirokining amaliy masalalari yoritilgan.

Metodologiya sifatida taqqoslash, tizimli tahlil, huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, normativ-huquqiy tahlil, mantiqiy xulosalash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Muhokama. Sud qarorlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko'rib chiqish jarayoni – fuqarolarning buzilgan huquqlari va erkinliklarini tiklashning muhim kafolatidir. Mazkur bosqichda sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko'rib chiqish jarayonida prokurorning ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuror sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish jarayonida davlat manfaatlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquqlarini himoya qiluvchi subyekt sifatida qatnashadi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 10-moddasida har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega ekanligi qayd etilgan [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi, shuningdek har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanganligiga oid konstitutsiyaviy qoida mustahkamlangan [2].

Yuqorida qayd etilgan xalqaro huquqiy hujjatda va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim jinoyat ishlari bo'yicha birinchi va boshqa sud instansiyalari tomonidan qabul qilingan qarordan norozi bo'ladigan bo'lsa, yuqori instansiya sudlariga, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari jinoyat

ishlari bo'yicha sudlov hay'atlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga shikoyat yoki vakolatli prokurorlar esa protest kiritishi mumkinligi nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari belgilangan bo'lib, sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish [3] prokuratura organlarining alohida asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan.

Natijalar. Sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish, ya'ni apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiya sudlarida ishlarni qayta ko'rib chiqish – sud tizimining ko'p bosqichli va o'zaro nazorat mexanizmini ta'minlovchi muhim jarayondir.

Sud qarorlarini yuqori instansiya sudlari tomonidan qayta ko'rib chiqishda prokuror ishtiroki, bir tomondan, davlat manfaatlarini himoya qilishga, ikkinchi tomondan esa, inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklarining himoyasi va uning kafolatlanishiga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda "inson manfaatlari – hamma narsadan ustun" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlar prokurorlarning sud jarayonlaridagi mas'uliyatini yanada oshiradi.

Prokurorlarning yuqori instansiya sudlaridagi faol ishtiroki nafaqat sud xatolarini tuzatish, balki sudlar faoliyatining umumiy sifatini oshirishga, sud qarorlarining barqaror va qonuniy bo'lishiga xizmat qiladi. Shu sababli, prokuror ishtirokining huquqiy asoslarini, vakolatlarini, ularning samarali amalga oshirilish mexanizmlarini chuqur o'rganish bugungi kunda katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat protsessida sud qarorlarini qayta ko'rib chiqish instituti sud tomonidan chiqarilgan hukm va ajrimlarning asoslilikini, qonuniyligini va adolatlilikini tekshirishga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq institutlaridan biridir [4].

Yuqori instansiya sudi – bu apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibidagi sud instansiyalaridir. Har bir instansiyada prokurorning maqomi mazmunan o'xshash bo'lsa-da, protsessual jihatdan ma'lum o'ziga xosliklarga ega.

Prokurorning protsessual maqomi deganda – u ishtirok etayotgan sud jarayonida egallagan huquqiy holati, ya'ni uning huquqlari, majburiyatlari, vakolatlari va javobgarligi tushuniladi. Prokuror sud faoliyatida mustaqil sub'yekt bo'lib, davlat nomidan qonuniylikni ta'minlash, sud qarorlarini qonunga muvofiqiligini tekshirish va adolatni tiklashga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 27-moddasida mustahkamlanishicha, protsess ishtirokchilari va boshqa shaxslar, shuningdek jinoyat ishini yuritishdan manfaatdor bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakillari Jinoyat-protsessual kodeksida belgilab qo'yilgan tartibda va muddatda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya va sudning protsessual harakati yoki qarori ustidan shikoyat berishga haqlidir.

Mahkum (oqlangan shaxs), uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar, ularning vakillari sudning hukmi (ajrimi) ustidan tegishincha apellyatsiya, kassatsiya va taftish tartibida shikoyat berishga, prokuror protest bildirishga haqli.

Mazkur Kodeksning 409-moddasi sud muhokamasida prokurorning ishtirokiga bag'ishlangan. Unga ko'ra prokuror birinchi instansiya sudlarida jinoyatlarga doir ishlarni ko'rishda ishtirok etib, davlat ayblovini quvvatlaydi, dalillarni tekshirishda ishtirok etadi, sudlanuvchilarga, jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar va sudga taklif etilgan boshqa shaxslarga savollar beradi, Jinoyat kodeksining normalarini qo'llash, sudlanuvchining harakatlarini tavsiflash, unga jazo turini va me'yorini tayinlash to'g'risida hamda sud hal etishi lozim bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan o'z fikrini bayon qiladi, jinoyatning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar haqida hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar xususida o'z fikrini bildiradi.

Prokuror davlat ayblovini quvvatlar ekan, Jinoyat-protsessual kodeksining, O'zbekiston Respublikasi boshqa qonunlarining talablariga va ishning barcha holatlarini qarab chiqishga asoslangan o'z ishonchiga amal qiladi.

Sud tergovni ma'lumotlari asosida prokuror sudlanuvchiga qo'yilgan ayblovni o'zgartirish zarur degan xulosaga kelsa, u bu haqda sudga asoslantirilgan bayonot berishi shart.

Sud muhokamasi natijasida prokuror sud tergovni ma'lumotlari sudlanuvchining aybsizligidan dalolat beradi degan ishonchga kelsa, u ayblovdan voz kechishi va voz kechish sabablarini sudga bayon qilishi shart. Prokurorning ayblovdan voz kechishi sud tomonidan jinoyat ishini reabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatishga sabab bo'ladi.

Prokuror ayblovning mazmunini o'zgartirish yoki ayblovdan voz kechish sabablari xususidagi fikrini sudga yozma ravishda taqdim etishi shart.

Prokuror, basharti fuqarolarning huquqlarini va jamiyat manfaatlarini muhofaza etish maqsadlari talab qilsa, da'vo qo'zg'atadi yoki jabrlanuvchi tomonidan qo'zg'atilgan fuqaroviy da'voni quvvatlaydi.

Prokuror jinoyat ishlarini ko'rishda yoki hukmni ijro etish bilan bog'liq masalalarni yoxud Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda boshqa masalalarni hal etishda apellyatsiya, kassatsiya va taftish instansiyasi sudida ishtirok etadi.

Prokuror sud muhokamasida, nafaqat, davlat ayblovchisi, balki jinoyat protsessi prinsiplariga qat'iy amal qilgan holda prokuror ishtirokini malakali ta'minlash orqali fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mustahkamlangan shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoyalash choralarini ko'rish lozim bo'lgan mansabdor shaxsdir [5].

Prokuror faoliyatining eng muhim tamoyillaridan biri – bu protsessual mustaqillikdir. Ushbu tamoyil prokurorga o'z vakolatlarini hech qanday bosim, aralashuv yoki tashqi ta'sir ostida bo'lmasdan, faqat qonun va ichki ishonchiga asoslanib amalga oshirish imkonini beradi.

Prokuror sud jarayonida ham mustaqil bo'lib, u hech bir shaxsning yoki idoraning ko'rsatmasiga bo'ysunmaydi. Prokuror faoliyati davlat nomidan amalga oshiriladigan, huquqiy jihatdan muhim va ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli faoliyatdir.

Prokuror jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlarni yuritish jarayonida qonun ustuvorligini ta'minlash bilan birga, o'z harakatlari uchun protsessual javobgarlikni ham zimmasiga oladi. Prokurorning protsessual javobgarligi, bu uning o'z vakolatlarini qonunga muvofiq, xolis va adolatli amalga oshirish majburiyati bilan bog'liq bo'lgan huquqiy mas'uliyat turidir.

Prokurorning protsessual javobgarligi – bu prokuror tomonidan jinoyat-protsessual yoki boshqa protsessual qonun normalarining buzilishi natijasida kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar majmuasidir.

Xulosa. Yuqori instansiya sudlarida prokuror ishtiroki jinoyat-protsessual faoliyatning ajralmas bo'lagi sifatida huquqiy davlat barpo etish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Prokuror mazkur bosqichda nafaqat davlat ayblovini ifoda etuvchi subyekt, balki inson huquqlari, qonuniylik, sud qarorlarining adolatlilik va poydevoriy tamoyillarga rioya etilishini ta'minlovchi kafolatli institutdir.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Prokurorning yuqori instansiya sudlaridagi ishtiroki – sud tizimining o'zini-o'zi tuzatish, xatolarni bartaraf etish va adolatning qaror topishida hal qiluvchi omildir.
2. Prokuror vakolatlari xalqaro standartlar, konstitutsiyaviy kafolatlar va milliy jinoyat-protsessual normalar bilan mustahkamlangan.
3. Prokuror ishtirokini takomillashtirish:
 - o malaka va mutaxassislik darajasini oshirish;
 - o sud-huquq amaliyotida prokuratura bilan sud o'rtasidagi protsessual hamkorlikni kuchaytirish;
 - o sud qarorlarining elektron monitoringi tizimini joriy etish orqali yanada samarali bo'lishi mumkin.
4. "Inson manfaatlarini — hamma narsadan ustun" tamoyilining amalda ta'minlanishida prokuror ishtirokining mas'uliyati kuchaydi.
5. Yuqori instansiya sudlarida prokuror ishtiroki instituti O'zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimida adolat va qonuniylikni ta'minlovchi muhim mexanizm sifatida shakllangan. Ushbu institutning nafaqat qarorlarning qonuniyligini ta'minlovchi mexanizm, balki fuqarolarning huquqiy himoyasi, davlat manfaatlarini va sud tizimining obro'sini mustahkamlovchi muhim institut sifatida shakllanadi. Bu institutning rivojlanishi va takomillashtirilishi O'zbekistonning sud-huquq tizimini yanada samarali, xolis va adolatli bo'lishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. (Mas'ul muharrir A.Saidov). –Toshkent: "Adolat", 2004. –B.32.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. –Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. –B. 23.
3. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/106197>
4. Jinoyat protsessual huquqi. Maxsus qism. Darslik / A.A.Abdurashidov va boshqalar. –T.: TDYUU nashriyoti, 2025. –B. 235.
5. O'zbekiston Respublikasining Prokuratura to'g'risidagi qonuniga sharh. –T.: "Yuridik adabiyotlar publish", 2024. –B. 216.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).